

TABIBIY G'AZALLARIDA ADABIY AN'ANALAR

Tolibjonova Maftuna
Namdu 1-kurs magistranti
[Tel:+998930594580](tel:+998930594580)

Ahmad Tabibiy XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Xiva adabiy muhitida o'z o'rniga ega bo'lgan istedadli ijodkorlaridan biridir. Tabibiy qisqa hayoti davomida boy meros qoldirdi. Shoir turli janrlarga oid lirik asarlar yaratgan. Ammo hanuzgacha ijodkor asarlari tabdili to'liq amalga oshirilib, nashr etilgan emas. Ularni adabiyotshunoslik, adabiy manbashunoslik va mantshunoslik sohalari nuqtai nazaridan o'rganish dolzarb ahamiyatga molik. Tadqiqot ishimizda shoir lirik asarlaridan, asosan, g'azal va ruboiylari mavzular ko'lami ochib berilgan va tasniflangan. Ahmad Tabibiy adabiy merosida g'azal yetakchi janr hisoblanadi. Shoir g'azallari ushbu lirik janr talablariga to'liq muvofiq kelishi bilan alohida ahamiyatga ega. Ularni o'rganish shoirning badiiy mahorati yuksak ekanini ko'rsatadi. Mumtoz lirikada g'azal unda qo'llangan qofiyaning xususiyatiga ko'ra: 1) husni matla' (a-a, a-a, b-a, v-a), 2) qit'a g'azal (b-a, v-a, g-a), musajja' g'azal (barcha baytlari ichki qofiya asosiga qurilgan); 3) zebqofiya (a-a, a-a, a-a, a-a), zulqofiyatayn (a-a, b-b, v-v) kabi turlarga bo'linishi ma'lum. Bundan tashqari, ushbu lirik janrning oddiy g'azal, muvashshah g'azal, tazmin g'azal singari turlari ham xoslanadi. G'azalning lirikasida uchraydigan turlari shoirning buyuk salaflari lirik merosini va ularning mahorati sirlarini chuqur o'rganganidan hamda ushbu janr takomiliga munosib hissa qo'sha olganidan dalolat beradi. Shoirning "Erur" radifli g'azali husni matla' usulida qofiyalangan. G'azalning dastlabki ikki bayti tahlili ijodkorning she'riyat nazariyasini puxta bilishdan tashqari, ijod jarayoniga tatbiq eta olgani isbotidir:

Olanga boqsang hosili boshdin-oyoq kulfat erur.
Bir rohatning keyinida behaddu son mehnat erur.
Bir oshiqikim lahzaye topsa visoli dilbarin,
Doim hamul bechorag'a, so'ngra g'ami furqat erur.
Har kimsakim komi dilin gar topsa ondin har nafas,
Andin nasibi borho xirmon bila hasrat erur.

Shoir mazkur baytda husni matla' bilan bir qatorda tashbih, tanosub, tazod san'atini ham mahorat bilan qo'llagan. G'azal nafaqat qofiyalanish tartibiga, balki badiiy san'at talabiga ko'ra ham husni matla'ning betakror namunasidir. Zero, g'azal matla'i "ham mazmun, ham uslub jihatdan nihoyatda mutanosib... Chiroyli so'z va iboralar chuqur ma'noning yorqin, ta'sirli shaklda namoyon bo'lishini ta'minlagan. Natijada matla' o'quvchi e'tiborini qozonib, unda keyingi baytlarni o'qishga ishtiyoq uyg'otadi". Tabibiy lirikasida g'azalning eng ko'p uchraydigan turi – oddiy g'azal. Bu

turdagi g'azallarning shakliy belgilari, adabiyotshunos Olim Oltinbek fikricha, "...quyidagilardan iborat: 1) matla' dan maqta' gacha bir xil vaznda yozilgan bo'lishi; 2) matla' misralari o'zaro qofiyalangan va juft misralarning barchasi unga qofiyadosh bo'lishi; 3) belgilangan (3 baytdan 21 baytgacha) hajmda bo'lishi; 4) maqta' da shoir taxallusi qo'llanishi lozim" . Tabibiy lirikasida g'azalning ushbu turi yetakchilik qilishini ta'kidlash kerak. Bu turdagi g'azallar shoirning lirikadagi mahoratini ko'rsatishi jihatidan qimmatlidir.

Mana, shunday g'azallardan biri:

*Kimdakim ahli jahondin bor ilmu ma'rifat,
Qilg'usidur oni barhurdor ilmu ma'rifat.
Bu ikkov ba'zig'a lekin bu zamon bordur nihon,
Shukurkim aksarg'adir izhori ilmu ma'rifat.
Ey birodar, olimu orif bolurg'a jahd qil,
To yeturkay ko'nglungga anvor ilmu ma'rifat.
Ilm birla ma'rifatdin oyru tutmishdir Tabib,
Yo rab, emdi qil anga ham yor ilmu ma'rifat.*

Ushbu g'azalda ma'rifat, ilm, bilim tasvirlangan. Go'yoki ma'rifat chirog'i o'quvchi ko'z o'ngida yorqin namoyon bo'ladigan badiiy tasvirni yarata olgani shoirning ulkan mahoratidan darak beradi. Shoir g'azalida bevosita lirik qahramonga murojaat qilgan. Ilmi insonning hech davrda xor bo'lmasligi doim hurmat-e'tiborda bo'lishi ta'kidlangan. Kishi ruhiyatining inja badiiy talqini – lirik kayfiyatning kuchli ifodasi bo'lgan bu g'azal Tabibiyning mumtoz poetik ifoda ustasi ekani tasdig'idir. G'azalni tahlil etar ekan, an'anaviy 9 baytni tashkil etadi. Lirik qahramonga murojaat tarzida yozilgan. Tashbex, tanosib, tazod, husni talil kabi she'riy san'atlardan unumli foydalanilgan. Bu birliklar g'azalning undalma tarzida ekanligini yuzaga chiqarishda muhim rol o'ynagan. Umuman, ushbu g'azalni lirik qahramon va shoir o'zining ruhiyat tasvirining mutanosibli, nozik ma'no va go'zal badiiyat uyg'unligi bilan mumtoz g'azalchilikning nodir namunalaridan, deyish mumkin.

“Fido” radifli g'azal ham oddiy g'azal turiga mansub. Yetti baytli bu g'azal chuqur mazmuni, tutilmagan tashbehlari, fikrning mantiqiy izchilligi va san'atkorona ifodasi bilan Tabibiy ijodida alohida o'rin tutadi. G'azal matla'i quyidagicha:

*Oy yuzingni sham'iga xurshidi xovardur fido,
Vey labingga chashmai hayvonu kavsardur fido.*

Ushbu g'azal oddiy g'azalga qo'yiladigan barcha talablarga javob berishi jihatidan qimmatlidir. Ma'shuqa benihoya go'zal. Uning yuzi bamisoli xurshid – quyoshga mengzaydi. U yuzidan niqobini olar ekan, atrofga ziyo taraladi.

*Gulshan ichra ko'zlaringga volasi nargis o'lub,
Qomatingga sarvi shamshodu sanubardir fido.*

“Nargis”, “Shamshod” so'zlari “Navoiy asarlari lug'ati”da: gul va daraxt nomi bilan izohlanadi. Ya'ni shoir mana bunday demoqchi: “Gullar yoki bog'lar ichida nargis guli volasi muhtoj, qomatingga esa hatto, shunchalik tik shamshod daraxti ham senga ta'zimda, egik demoqchi. Baytda ijodkor lirik kayfiyatni san'atkorona ifodalagani e'tiborga loyiq.

***Kelgil emdi ochibon ruxsoringni bazming'akim,
Doim ishq ichra sanga bu zoru muztardir fido.***

Oshiqning ma'shuqaning yolvorish so'zlari ifodalangan. Bunda oshiq mashuqning ruxsori ya'ni yuzini ko'rishga muhtoj. Mumtoz g'azalchilikda odatda ma'shuqa va'daga vafosiz, deb ta'riflanadi. Tabibiy g'azalida esa, aksincha: yor – va'dasiga vafodor. Keyingi misralar bu fikrni mantiqan izchil davom ettiradi, yanada to'ldiradi:

***Men kibi biri qachon, jono, fidong ulg'usidir,
Garchi olamda sanga behaddu son bordur fido.***

Mumtoz she'riyatda yorga nisbat beriladigan sifatlardan biri nozu ado ekani ayon.

***Lal rangingg'a yoqut o'lg'usidir banda base'
Tishlaringga ham sadafda durru gavhardur fido***

Baytdagi tasvirlarning barchasi lirik qahramon oshiqning ma'shuqqa vafodor ekanidan darak beradi.

***Jam' devon etgusi doim Tabib ul vajhdin
Kim sanga, ey nozanin, devoni daftardur fido.***

Tabibiy oshiqning baland g'ururlisini, iboli, hayolisini, o'z qadrini biladiganini sevadi. Baytdagi fikr yorga shunga yarasha dilidagi barcha gaplarni devon qilib ya'ni jamlab unga aytdi, jasurlik bilan o'zini fido qildi qildi ma'nosini beryapti. Bu hol g'azalda milliy qadriyatlar hisoblangan ibo va hayoni vasf etish ijodkor she'riyatining xos xususiyatlaridan ekanini ko'rsatadi. Arab she'rshunosligida she'rda shakl va mazmun munosabati ancha mukammal va tizimli o'rganilgan. B.Ya.Shidfarning yozishicha, arab olimi Qudama she'riy asardagi shakl va mazmunga xos to'rtta bir-biriga bog'liq tarkibiy unsurlarning o'zaro munosabatini poetik uyg'unlikning asosi deb qaragan. Bular: so'z va ma'no; so'z va vazn; ma'no va vazn; ma'no va qofiya. Bu unsurlarning o'zaro munosabatlari esa baytda so'z, vazn, ma'no va qofiyaning to'la uyg'un bo'lishini talab etadi. Tabibiy g'azallarida bayt poetikasi alohida o'rganilishi zarur bo'lgan ilmiy muammolardan sanaladi. Umuman, shoir g'azallarida baytlar poetik fikr, tuyg'u va shakl jihatdan o'zaro mutanosib ekani jihatidan mumtoz she'riyatning barcha talablariga javob beradi. Tabibiy lirikasining asosiy mavzularidan biri ishq-muhabbatdir. Shoirning ishqiy she'rlari o'zining mazmundorligi, ohangdorligi, turli bo'yoqlarga boyligi va shaklining har tomonlama rang-barangligi bilan diqqatga sazovordir. Tabibiy lirikasining mazmunini yorga haqiqiy muhabbat, unga cheksiz sadoqat, hijron bilan kurashish, har qanday azob-uqubatlarga bardosh berib, uning

vasliga intilish, uning sevgisi bilan faxrlanish g'oyalari tashkil etadi. Tabibiyning ishqiy g'azallari orasida yurak harorati va to'lqini bilan ishqni, uning hayajonlarini, go'zallikni dildan xis qilib yaratilgan g'azallar talaygina.

*Bog` aro to orazu zulfing namoyon aylading,
So`ldirib gulniyu sunbulni parishon aylading,
Sarv ila shamshod bottilar xijolat loyig`a,
Chun chamanda noz ila qadding xiromon aylading.
Jodu ko`z birla boqib giryon nigohi fitnasoz,
Nargisi bechorani mabxutu hayron aylading.
Ochibon mehri sahar yangliq binogo`shingni ham,
Oqibatdin subhi ma`zulu uryon aylading.*

Keltirilgan misoldan ko`rinadiki, shoir bu g'azalda chiroyli bir epizod yaratgan. Bog` deganda kishi ko`z oldiga ajoyib manzara keladi. Uning o`ziga xos go`zalligi bor: unda ko`m-ko`k daraxtlar, anvoyi gullar, zilol suvlar va bulbullar bo`lishi tabiiy. Lekin shoir tasvirlayotgan mahbub shu qadar go`zalki, u boqqa kirgach, uning xusnu-latofati, odob-hayosini ko`rib ochilgan gullar xijolatga tushadi, zulfiga yuzma-yuz kelgan sunbul aqldan ozadi, yor qomatini ko`rgan sarv daraxtlari iztirobga tushadilar. Yor o`tli ko`zlari atrofga shunday ibo bilan qaraydiki, uni ko`rgan nargis bu fazilatlarga hayron qoladi. Tabibiy lirikasida oshiqlar ko`pincha xursandchilikdan ko`ra o`z maqsadlariga – mashuqalariga yeta olmaslik xususida chuqur hayajon bilan hasrat qiladilar. Buning chuqur hayotiy ildizlari bor, albatta. Yuqoridagi fikrlarimizning tasdig`ini shoirning mana bu murabbasida yaqqol his qilamiz.

*Men kabi yo`qdir jahonda bir asiru notovon,
Kim sarig` yuz uzra qon yoshim erur doim ravon,
Ko`rsa holim yig`lagusi begumon qizu juvon,
Xotirimda ul sanam ishqig`ami ozoridur.*

Tabibiy lirikasidagi bu kabi qalb nidolari uning faqat shaxsiy tuyg`usigina emas, balki zamon, davr sadosining real aksi hamdir. Shoir inson sevgisini qadrlab uni shu daraja ko`klarga ko`taradiki, uning davosini xatto Luqmon-tabobatning otasi bo`lgan shaxs ham topa olmaydi:

*Ilojin aylay olmassen, Tabibiy, ishq dardining
Tabobat fanni ilmi ichra gar Luqmoni davronsen.*

Bunday she`rlar Tabibiyning go`zallik, muhabbat, vafodorlik kuychisi ekanligini, pok sevgining olijanob kechinmalarini samimiy kuylaganini ko`rsatadi. Tabibiy lirikasida o`z davri ijtimoiy – siyosiy tuzumi, xalqning turmushi qanday yoritilgan? Tabibiy devonlarida faqat ishqiy g'azallargina emas, balki ijtimoiy-falsafiy g'oyalarni ifoda etuvchi shu`rlar ham ko`p uchraydi. Uning qator g'azal va ruboiylarida davr sadosi o`z ifodasini topgan. Ma'lumki, Tabibiy davrida xalq nihoyatda og`ir ahvolda yashar, mahalliy feodallar tomonidan qattiq zug`um o`tkazilar edi. Bu masala Tabibiy

va boshqa taraqqiyparvar shoirlar ijodida aks etmay qolmadi, albatta. Tabibiy ham o`zining ana shu noroziligini g`azallarida turli yo`llar bayon qildi. U shkoyatning asosiy mazmunini boshqa shoirlar kabi falak, ba`zi bir johil amaldorlar, bevafo yor va shunga o`xshash narsalar bilan bog`ladi:

*Olanga boqsang, hosili boshdin-oyoq kulfat erur,
Bir rohatining keynida behadu son mehnat erur.
Bir oshiqi kim lahzai topsa visoli dilbarin,
Doim hamul bechorag`a, so`ngra g`ami furqat erur.
Yo`qtur jahong`a e`timod ushbu jihatdin, ey ko`ngul,
Kim inqilob etmak anga davron aro odat erur.*

Tabibiy o`zining zamon to`g`risidagi qarashlarini dastlab sevgi haqidagi g`azallarida ifoda etadi. Shu o`rinda aytish kerakki, ayrim adabiyotshunoslarimiz yaqin o`tmishimizgacha, g`azal janrida faqat intim tuyg`ulari kuylanadi, degan yanglish fikrida edilar. G`azal janring paydo bo`lgan dastlabki davrlari uchun bu fikr to`g`ri bo`lsa bo`lgandir, biroq g`azal janrining umumiy mazmunini to`g`ri ifodalash uchun xarakterli emas. A.Mirzayev, A.Hayitmetov, A.Karimov singari olimlarimiz o`zlarining bu masalaga bag`ishlagan ilmiy ishlarida g`azal janrining barcha xususiyatlarini chuqur tahlil qilish asosida, g`azalda sevgi tuyg`ulari bilan bir qatorda juda muhim hayotiy masalalar, falsafiy mushohadalar ham o`z ifodasini topishi mumkinligini qayd qilib o`tganlar. Ularning fikrlarini tasdiqlovchi misralarni Tabibiy g`azallaridan ham ko`plab uchratish mumkin. Bu yerda biz bahri, radifi, qofiyasi, o`zining butun yo`nalishi bilan muhabbat masalalariga bag`ishlangan, intim lirika, bayt, misralarda qisqartma tariqasida aytiladigan muhim ijtimoiy masalalar – jamiyat, hayot, odob-axloq to`g`risida bayon qilingan fikrlarga e`tiborni qaratmoqchimiz:

*Mehri jamoli hajrida tun-kun chekib ohu fig`on,
Bo`lmish Tabibiy boshig`a bu dahr zindon o`zgacha.*

Yoki

*Ko`nglumki zulmingdin xarob bo`lg`on ajab koshonadur,
Bug`on oni ko`zungdagi ul g`amzai mastonadur.*

Keltirilgan har ikki baytdan shoirning o`z davri va ijtimoiy tuzumga nisbatan bo`lgan munosabati ko`rinib turibdi. Shunday qilib, biz yuqorida ko`rib o`tgan misollarda Tabibiyning g`azallarida an`anaviy mavzular bilan birga hayotiy masalalar anchagina o`rinni egallaganini ko`rdik. Ma`lumki, o`zbek adabiyotida muxammas janri juda keng tarqalib muhim rol o`ynagan. Muxammas asosan uch usulda yaratiladi.

Shoir to`g`ridan-to`g`ri har biri misradan iborat she`r-beshlik yaratadi. Bandlarning soni cheklanmaydi. Shoir o`zining biron-bir g`azalini qo`shib muxammas yaratadi. Yoki shoir xuddi shu tarzda boshqa shoirlarning g`azallariga muxammas bog`laydi. Muxammas yaratishda avvalo shoir o`zining didiga, fikr va tuyg`usiga yaqin bo`lgan g`azalga muhammas bog`lashga xarakterli xarakter qiladi. Demak, muhammas bog`lash

oddiy ish emas, balki shoirning dunyoqarashi, orzu-umidi bilan bevosita bog`langan bir hodisa hamdir. Har bir davrning ilg`or shoirlari o`zlaridan oldin o`tgan taraqqiyparvar shoirlarning g`azallariga muhammas bog`lab, uning ilg`or fikrlarini targ`ib qilishga harakat qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy ruboiylari haqida. Filologiyaning umumnazariy masalalari -T., 2020, 35-bet).
2. Afoqova N. Jadid she`riyati poetikasi (vazn va qofiya muammolari). – Toshkent: Fan, 2005. – B. 23.
3. Afoqova N. O`zbek jadid adabiyotida she`riy shakllar taraqqiyoti tamoyillari. Filol. fan. dokt. diss... – Toshkent, 2006. – B. 133.
4. Afoqova N. O`zbek jadid adabiyotida she`riy shakllar taraqqiyoti tamoyillari. Filol. fan. dokt. diss... – Toshkent, 2006. – B. 134.
5. Afoqova N. Jadid she`riyati poetikasi (vazn va qofiya muammolari). – Toshkent: Fan, 2005. – B. 23.
6. Amonov, Shermuhammad. (2020). “Ahmad Tabibiy ijodi va uning “Munisu-l-ushshoq” devoni nusxalari”. Oltin bitiklar. 1: 22-42 betlar.
7. Amonov, Shermuhammad. 2020. “Ahmad Tabibiy ijodi va uning “Munisu-l-ushshoq” devoni nusxalari”. Oltin bitiklar. 1: 22-42 betlar
8. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy ruboiylari haqida. Filologiyaning umumnazariy masalalari -T., 2020, 34-37-betlar.